

**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**SEMANTIC AND LINGUOCULTURAL STUDY OF LEXICAL UNITS****Nodira Rajabaliyeva***Teacher of the Department of World Languages**Kokand University*Nodirarajabaliyeva@gmail.com*Kokand, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: language, lexical level, linguistics, branches of linguistics, lexical-semantic level, lexicology, linguoculturology, color-component lexical units.

Received: 24.11.25**Accepted:** 25.11.25**Published:** 26.11.25

Abstract: Just as there is nothing in the world that does not develop, language also continues to develop day by day. On one hand, language as a social phenomenon is evolving continuously; on the other hand, the field that studies this phenomenon is rapidly advancing as well. It is clear to everyone that language — the object of linguistics — is both extremely complex and invaluable, because all knowledge is ultimately based on language.

Every language has its own unique characteristics, and these linguistic features are closely connected with culture. In this regard, we can say that a nation's general worldview manifests itself in the specific features of linguistics. Semantics, or semasiology, studies and analyzes the meanings of words and expressions in linguistics. In other words, it is the field that examines what meanings words convey in speech or writing.

This article attempts to study the semantic and linguocultural analysis of lexical units of the language and investigates the relationships between different levels of the language. The main focus is directed at the lexical level of the language. Indeed, every theory that exists in linguistics is primarily based on the way we understand language. How we understand language plays an important role in shaping linguistic theory.

**LEKSIK SATH BIRLIKLARINING SEMANTIK, LINGVOKULTUROLOGIK
TADQIQI**

Nodira Rajabaliyeva*Jahon tillar kafedrası o'qituvchisi**Qo'qon Universiteti*Nodirarajabaliyeva@gmail.com*Qo'qon, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so'zlar: til, leksik sath, tilshunoslik, tilshunoslik bo'limlari, leksik-semantik sath, leksikologiya, lingvokulturologiya, rang komponentli leksik birliklar.

Annotatsiya: Dunyoda rivojlanmaydigan narsani o'zi bo'lmaganidek, til ham kundan kunga rivojlanib boraveradi. Bir tomondan til ijtimoiy hodisa sifatida kundan kunga rivojlanyapti, boshqa bir tarafdin esa bu hodisani o'rganuvchi tarmoq ham tez suratcha odimlab ketyapti. Tilshunoslik obyekti bo'lgan til naqadar murakkab shu bilan birga qiymati yo'q hodisa ekanligi barchaga ayon. Chunki barcha bilimlar asosida til yotadi.

Har bir tilning o'ziga xos usuliyatlari mavjud bo'lib, ularning til xususiyatlari madaniyat bilan bog'liqdir. Shu o'rinda ayta olamizki, millatning umumiy dunyoqarashi, tilshunoslikdagi o'ziga xoslikni namoyon etadi. Semantika yoki semasiologiya tilshunoslikda so'zlar va iboralarning ma'nosini o'rganadi, tahlil qiladi. Ya'ni nutq jarayonida yoki yozayotganda so'zlar qanday ma'noni anglatishini o'rganadigan fan sohasi hisoblanadi.

Maqolada tilning leksik sath birliklarining semantik, lingvokulturologik tadqiqi o'rganishga xarakter qilingan va tilning turli sathlari o'rtasidagi munosabatlar tadqiq qilingan. Asosiy e'tibor esa tilning leksik sathiga qaratilgan. Darhaqiqat, tilshunoslikda mavjud bo'lgan har bir nazariya, avvalo tilni qanday tushunishga asoslanadi. Tilni qanday tushunish til haqidagi nazariyani yaratishda ahamiyati katta.

СЕМАНТИЧЕСКОЕ И ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ЛЕКСИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ

Нодира Раджабалиева*Преподаватель кафедры мировых языков**Кокандский университет*Nodirarajabaliyeva@gmail.com*Коканд, Узбекистан***О СТАТЬЕ**

Ключевые слова: язык, лексический уровень, языкознание, разделы языкознания, лексико-семантический

Аннотация: Как и нет в мире ничего, что не развивалось бы, язык также ежедневно развивается. С одной стороны,

уровень,
лингвокультурология,
единицы с цветовым компонентом.

лексикология,
лексические

язык как социальное явление постоянно развивается, с другой — отрасль, изучающая это явление, тоже стремительно продвигается вперёд. Всем очевидно, что язык — объект языкознания — представляет собой крайне сложное и вместе с тем бесценное явление, поскольку в основе всех знаний лежит язык.

Каждый язык обладает своими особенностями, и его свойства связаны с культурой. В этом смысле можно сказать, что общее мировоззрение нации проявляется в специфике её языкового сознания. Семантика, или семасиология, изучает и анализирует значения слов и выражений в языкознании. То есть это область, исследующая, какие значения передают слова в процессе речи или письма.

В статье предпринята попытка изучить семантическое и лингвокультурологическое исследование лексических единиц языка, а также рассмотрены взаимоотношения между различными уровнями языка. Основное внимание уделено лексическому уровню языка. Действительно, каждая теория, существующая в языкознании, прежде всего основывается на том, как мы понимаем язык. Понимание языка имеет большое значение при создании теории о языке.

Kirish. Har bir til hodisasi turli xil xususiyat, ya'ni qirralariga ega. Shunga ko'ra til hodisalarida o'rganish manbayi va o'rganish predmeti farqlanadi. Bunda tegishli til hodisasi o'rganish manbayi va uning tadqiq uchun olingan xususiyati o'rganish predmeti deyiladi. Tilshunoslikning sohalari bir o'rganish manbayining qaysi qirrasini o'rganish asosida farqlanadi. Masalan, til leksikasi tilshunoslikning leksikologiya, semasiologiya va onomasiologiya sohalari o'rganish manbayi hisobalanadi. Leksika bevosita yoki bilvosita borliqni ifodalaydi, jamiyatdagi o'zgarishlarni, xalqning moddiy hayoti va ma'naviy olamini aks ettiradi, yangi predmet, hodisa, jarayon va tushunchalarni ifodalash uchun yangi so'zlar bilan muttasil to'lib boradi. O'zida eskitish va yangilanishni to'la aks ettiradi. Iste'mol darajasi susaygan birliklar esa leksikadan butunlay chiqib ketmaydi. Leksikani qayd etuvchi soha leksikografiya bo'lib, uning nazariy va amaliy, an'anaviy va zamonaviy ko'rinishlari mavjud.

Lisoniy madaniyatshunoslik hozirgi zamon tilshunosligida ko'plab tadqiqotlar olib borilayotgan ilmiy yo'nalishlardan hisoblanib, u antroposentrik paradigma negizida vujudga

kelgan. Bunda borliq fragmentlarining til vositasida tafakkurda konseptuallashuvi va lisonning madaniy aspektlariga e'tibor qaratiladi. Inson borliqdagi predmet va hodisalarni o'zi yashab turgan jo'g'rofiy hududi, jamiyatning shakli, tarixi va an'analari, turmush tarzi kabi omillardan kelib chiqqan holda idrok qiladi va til birliklari vositasida nomlaydi va ifoda etadi. Tilning frazeologik fondi lisoniy madaniyatshunoslikning tadqiqot predmeti sifatida millat mentaliteti va madaniyati haqidagi qimmatli madaniy axborotlar manbai hisoblanadi. O'rganish ob'ekti sifatida frazeologizmlar o'ziga xos til birligi sanalib, ifoda va mazmun planiga ega. Hozirgi zamon tilshunosligida frazeologik sath tor va keng doirada tushunilmoqda, turg'un so'z birikmalarini ifodalovchi atamalar ham turli- tuman va bahsli ta'riflarga egadir.

Bu borada bir necha e'tiborga molik tadqiqotlar, ilmiy-nazariy yondashuvlar asosida o'tkazilgan va tadqiqotlar tilning frazeologik sathiga daxldor milliy-madaniy unsurlarga nisbatan olib borilgan (V.Teliya, V.Maslova, V.fon Humboldt, A.Vierzicka, J.Lakoff, A.Nasisione, M.Xoliqova, N.Mahmudov, A.Mamatov, B.Yoldoshev va hakozi) amalga oshirilgan. . Tilni madaniyat, falsafa va psixologiyaning negizi, ya'ni tilning madaniyatga ta'sirini birlamchi hisoblovchi V.fon Humboldt, I.G.Gerder, E.Sepir va B.Uorf va boshqalar ikkinchi yondashuv namoyondalari hisoblanadi. Til va madaniyat tushunchalarining chambarchas va yaxlitligi dastlab, V.fon Humboldt ishlarida aks etadi. Unga ko'ra, til millatning «ruhi», ya'ni u madaniyatga ta'sir etish kuchiga ega. "Lingvokulturologiya – bu lingvistika va madaniyatshunoslik kesishmasida vujudga kelgan va xalq madaniyatlarining tilda aks etgan barqaror ko'rinishlarini tadqiq qiluvchi fan", - deb ta'riflaydi V.A.Maslova. V.N.Teliya lisoniy madaniyatshunoslik predmeti sifatida "til va madaniyatning o'zaro ta'siri usullari va sinxron harakatdagi vositalarini tadqiq qilish va tavsiflash" haqida ilmiy ishlar olib bordi. Bobolonimiz A.Navoiy "tilni xanjarga, so'zni unga qadalgan injularga qiyos qilganlar. Yana bir joyda tilni ochilgan lolaga, so'z durlarini esa unga qo'ngan shabnamga o'xshatganlar" (T.Malik, O'rganish va izlanish). Bundan til birlamchiligi, madaniyatning ifoda vositasi ekanligi anglashiladi. Shu bilan birga o'zbek tilshunosligida milliy-madaniy dunyoqarashning frazeologik sathdagi tadqiqi to'laligicha o'rganilgan deb bo'lmaydi.

Tadqiqot metodologiya. Leksik daraja birliklarini semantik va lingvokulturologik tadqiq qilish metodikasi

Ushbu metodologiya leksik birliklarni ham semantik, ham lingvomadaniy nuqtai nazardan tadqiq qilishning kompleks yondashuvini belgilaydi. U ma'no, til va madaniyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ochib berishga qaratilgan bo'lib, leksik elementlarning ma'lum bir lingvistik va madaniy kontekstda qanday ishlashi haqida nozik tushunchani beradi.

Bu borada quyidagi tadqiqotlardan foydalaniladi.

Paradigmatik tahlil: Ushbu tadqiqot, birinchi navbatda, ma'noning sub'ektiv tabiatini va madaniy kontekstning lingvistik ifodaga ta'sirini e'tirof etgan holda interpretativistik paradigmani qabul qiladi.

Semantik tahlil: kognitiv semantika, leksik semantika, prototip nazariyasi, ramka semantikasi. Ushbu ramkalar ma'no qurilishi, turkumlash va leksik birliklarni shakllantirishda tajribaning rolini tahlil qilishda yordam beradi.

Lingvokulturologiya: Wierzbickning madaniy tilshunoslik, etnolingvistika va lingvistik dunyoqarash nazariyalari. Ushbu ramkalar leksik elementlarga kiritilgan madaniy tushunchalarni va ularning muloqotga ta'sirini aniqlashga yordam beradi.

Leksik birlikni aniqlash:

Maqsadli leksik birliklar: Tekshiriladigan aniq leksik birliklar aniq belgilanadi. Bu semantik maydon, o'zaro bog'liq so'zlar guruhi, ko'p ma'noli so'zlar, madaniy ahamiyatga ega atamalar yoki o'zlashtirilgan so'zlar bo'lishi mumkin.

Etnografik ma'lumotlar (agar mavjud bo'lsa):

Suhbatlar: ona tilida so'zlashuvchilar bilan yarim tuzilgan yoki tuzilmagan intervyular, ularning maqsadli leksik birliklarni tushunishlari, assotsiatsiyalari va madaniy talqinlarini aniqlash uchun.

Kuzatish: Maqsadli leksik birliklar qo'llaniladigan madaniy amaliyotlar, marosimlar yoki ijtimoiy o'zaro ta'sirlarni ishtirokchi yoki qatnashmagan holda kuzatish.

So'rovlar/So'rovnomalar: Jamiyatda o'ziga xos leksik birliklarni qo'llash va idrok etish bo'yicha kengroq nuqtai nazarlarni to'plash (agar aralash usullar yondashuvi qabul qilingan bo'lsa).

Garchi lingvistik sath tushunchasi keyinchalik bir qator tilshunoslar tomonidan e'tirof etilgan bo'lsa ham, lekin bu atama juda keng ma'noda qo'llanila boshladi. Shunday bo'lishiga qaramasdan, lingvistik sath kontseptsiyasi tarafdorlarini birlashtirib turgan umumiy jihatlar mavjud. U ham bo'lsa tilning tipologik tabiatini nisbiy avtonom sistemalar (kichik sistemalar) majmuasi sifatida tasavvur qilish, har bir kichik sistema chegaralangan miqdordagi elementlardan tashkil topadi va bu elementlar shu kichik sistema nuqtai nazardan mayda bo'laklarga bo'linmaslik xususiyatiga ega deb e'tirof etish, shuningdek, har bir kichik sistema o'z ichki elementlarining bir-biri bilan bog'lanish qonun-qoidalariga ega ekanligini e'tiborga olishdir. Sath tushunchasining ma'lum til birliklari yig'indisi tushunchasi bilan aloqasi borligi shubhasiz. Lekin sathni belgilashda qanday lingvistik belgilarga tayanish masalasini aniqlash katta ahamiyatga ega. V.M.Solntsev fikricha, tilda yasama so'zlar yig'indisi qo'shma so'zlar yordamida hosil bo'lgan birliklar yig'indisidan farq qiladi. Shuningdek, o'zak morfemalar yordamida hosil bo'lgan birliklar yig'indisi affiks morfemalar yordamida hosil bo'lgan birliklardan farq qiladi. Ana shu bir-biridan

farq qiladigan birliklar yig'indisiga asoslanib, "Yasama so'zlar sathi", "Qo'shma so'zlar sathi", "O'zak morfemalar sathi", "Affiks morfemalar sathi" kabi sathlarni ajratish sath tushunchasini chegarasiz bir tushunchaga aylantirib yuboradi. Tilda nechta til birliklari guruhlanishi mavjud bo'lsa, shuncha til sathini ajratishga olib keladi. Xususan, N.A.Slyusareva yordamchi so'zlar guruhini mustaqil so'zlar guruhidan ajratgan holda servologik sath, E.Benvenist fonemalarning farqlovchi belgilarini alohida sath – merizmatik sath sifatida ajratganini eslash kifoya. Til birliklarini muayyan guruhlarga turli belgilar asosida birlashtirish mumkin. Shunga muvofiq ravishda sath tushunchasi nisbiy bo'lib qoladi va bu tushuncha ayrim birliklarning ma'lum belgi asosida birlashgan guruhining oddiy nomiga aylanib qoladi.

Semantika sohasining maqsadi ma'nolarni semalar yoki semantik xususiyatlar deb ataladigan kichik birliklarga ajratish va bu so'zlarning ma'nosini segmentlarga ajratish, shuningdek, o'xshash ma'noga ega so'zlarni va qarama qarshi ma'no so'zlarini farqlash imkonini beradi. Boshqa tarafdin tahlil qiladigan bo'lsak, lingvistik semantika so'zlarning denotatsiyasi va konnotatsiyasini o'rganishga mas'uldir, xabar obyektiv ifoda etilganda, uning ma'nosi denotative deb aytiladi va obyektiv aloqaga imo-ishora yoki intonatsiya orqali ba'zi shaxsiy baho qo'shilsa, uning ma'nosi aytiladi va bu konnotativ hisoblanadi. So'zlarni o'rganishni quyidagilarga bo'lish mumkin:

1. Sinonimiya - bir xil belgini bir nechta belgi bilan ifodalash mumkin bo'lganda paydo bo'ladi, masalan: yuz, aft, bashara, orast va boshqalar.

2. Antonimiya - belgi boshqasiga nisbatan qarama qarshi ma'noga ega, masalan: sovuq – issiq, qish – yoz, oq – qora.

3. Polisemiya - ishora qiluvchi bir nechta ma'noga to'g'ri kelganda paydo bo'ladi, agar oyoq so'zi bo'lsa, u hayvonga ham, mebelning oyog'iga ham mos keladi.

4. Omonimiya - bu so'z ma'nolarining turlicha bo'lishi lekin yozilishi yoki talaffuzi jihatidan bir xilligi demakdir, masalan: son (o'g'il farzand) va sun (quyosh), night (tun) va knight (ritsar).

So'z ma'nolarini tahlil etar ekanmiz ularning semantik ma'nosi haqida ham to'htalib o'tmog'imiz darkor. Semantik maydon - bu sema (belgi) yoki lingvistik ildiz deb ataladigan umumiy funksional asosiy birlikka ega bo'lganligi sababli o'xshash ma'noga ega so'zlar yoki iboralar to'plamidir. Semantik maydonda turuvchi so'zlar aynan bir hil sohalarda ishlatiladi. Masalan, bog'dorchilik sohasiga oid semantik maydon so'zlari faqatgina shu sohada ishlatiluvchi leksemalar hisoblanadi.

Natija va takliflar. Til sathlarini e'tirof etuvchi tilshunoslarning fikricha, turli sath birliklari o'rtasida integratsion munosabat mavjud bo'ladi. Bu konsepsiya tarafdorlari til sathlari o'rtasidagi aloqani e'tiborga olgan holda, tilga yagona ierarxik shakllangan sathlar sistemasi sifatida qaraydilar. Tilning ichki tuzilishiga bunday yondashuv kompozitsion kontsepsiya deb yuritiladi

va u reprezentativ kontseptsiyaga qarama-qarshi qo'yiladi. Kompozitsion kontseptsiyaga muvofiq, tilning ichki tuzilishi bir xil yo'nalishdagi pog'onalanishdan (ierarxiyadan) iborat. Bu shundan iboratki, fonema, morfema va undan katta birliklar o'rtasida bir xil yo'nalishdagi pog'onali munosabat mavjud. Har bir sath birliklari umumiylik va xususiylik dialektikasini o'zida namoyon etadi.

Umuman, madaniyat va tilning o'zaro murakkab munosabatlarida tilni madaniyatning elementi, qismi, fakti, omili, shakli, manbasi, saqlovchisi, xotirasi, tarjimoni, mavjudlik sharti sifatida izohlash mumkin. Tilshunoslik tarixida til va madaniyatning o'zaro munosabati masalasiga uch xil yondashuv mavjud. S.A.Atanovskiy, G.A.Brutyan, E.S.Markaryan kabi faylasuflar madaniyatning tilga bir tomonlama ta'sirini yoqlab chiqdilar. Bu shartli ravishda birinchi yondashuv nomlanib, unga ko'ra, til madaniyatning oddiy in'ikosi sifatida e'tirof etiladi. Tilni madaniyat, falsafa va psixologiyani negizi, ya'ni tilning madaniyatga ta'sirini birlamchi hisoblovchi V.fon Humboldt, I.G.Gerder, E.Sepir va B.Uorf va boshqalar ikkinchi yondashuv namoyondalari hisoblanadi. Til va madaniyat tushunchalarining chambarchas va yaxlitligi dastlab, V.fon Humboldt ishlarida aks etadi. Unga ko'ra, til millatning «ruhi», ya'ni u madaniyatga ta'sir etish kuchiga ega. V.fon Humboldtning obrazli ta'biriga ko'ra, «tillar – g'ildirak izi, unda ruh o'z faoliyati yo'nalishini amalga oshiradi yoki boshqacha o'xshatishda, - o'zan, unda ruh o'z hayot to'lqinlarini surib ketadi» (Гумбольдт, 1985:370). Uning fikrlari lisoniy madaniyatshunoslikning ikki asosiy g'oyasi, ya'ni «har qanday milliy til milliy madaniyat va jamiyat samarasini ifodalaydi» va «til tuzilishi milliy madaniyat, olamning milliy manzarasi va etnik shartlangan shaxsning fe'l-atvoriga ta'sir etadi» (Шаклеин, 1997:45) shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. O'tgan asrning 30-40 yillaridagi mashhur Sepir-Uorf gipotezasi – lingvistik nisbiylikga ko'ra, turli tilda gaplashuvchi kishilar guruhi olamni turlicha idrok qiladi, ya'ni til tuzilishi voqelikni bilish usuli va tafakkurni belgilaydi, voqelik muayyan jamoa til me'yorlarida nufuzli darajada g'ayrushuriy shakllanadi, ya'ni til –olamni etnosga xos idrok etish shaklining ajralmas komponentidir (Sapir, 1963:192). B.Uorf til va madaniyat munosabati xususida shunday yozadi: «til va madaniyat bir-birini taqazo qilsa va parallel rivojlansa-da, til tabiati uning (madaniyatning – muallif izohi) erki va o'zgaruvchanligini chegaralovchi omil hisoblanadi va uni qat'iy belgilangan yo'l bo'ylab taraqqiy etishga yo'naltiradi» (Whorf, 1959:139). Til va madaniyatning o'zaro munosabati haqidagi uchinchi yondashuvga mansub mulohazalar K.Levi-Stross, N.I.Jinkin, N.I.Tolstoy va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida aks etadi. Ularga ko'ra, til – biz ajdodlarimizdan meros qilib olgan madaniyatning tarkibiy qismi, til – biz uning yordamida madaniyatni o'zlashtirishimizdagi asosiy vosita va nihoyat til – ruhimiz voqeligi (Маслова, 1997:38). «Til bir vaqtning o'zida ham madaniyatning mahsuli, ham eng muhim tarkibiy qismi va madaniyatning mavjudlik sharti.

Til –madaniyat mavjudligining o‘ziga xos tarzi, madaniy kodlar shakllanishining omili» deb ta’kidlaydi K.Levi-Stross (qarang: Komopoba, 2012:538). Bobokolonimiz A.Navoiy «tilni xanjarga, so‘zni unga qadalgan injularga qiyos qilganlar. Yana bir joyda tilni ochilgan lolaga, so‘z durlarini esa unga qo‘ngan shabnamga o‘xshatganlar» (T.Malik, O‘rganish va izlanish). Bundan til birlamchiligi, madaniyatning ifoda vositasi ekanligi anglashiladi.

Muhokamalar. Til va madaniyatning o‘zaro munosabati masalasi xususida o‘rganilgan materiallar asosida bu ikki fenomenning o‘zaro bog‘lanishni quyidagicha farqladik: birinchidan, muloqot jarayonlarda, bunda til madaniy realiyani ifodalaydi, ya’ni kishilar so‘z yordamida madaniy birliklarni va ularga o‘z emotsional-baho munosabatlarini ifodalaydi. Ikkinchidan, ontogenezda, bunda til madaniy hodisani, tajribani o‘zida mujassam etadi. Uchinchidan, filogenezda, bunda til madaniy voqelikni ramziy ko‘rinishda ifodalaydi, ya’ni til lingvomadaniy jamoaning ramzi sifatida ko‘riladi. Til va madaniyatning o‘zaro munosabati tadqiqiga til shaxsi tushunchasini jalb etilmasdan amalga oshmaydi.

Xulosa. Yuqoridagi tahlil va dalillarga asoslanib, quyidagi xulosalarni ilgari surish mumkin: Til va madaniyatning o‘zaro munosabati masalasi xususida o‘rganilgan materiallar asosida bu ikki fenomenning o‘zaro bog‘lanishni quyidagicha farqladik: birinchidan, kommunikativ jarayonlarda, bunda til madaniy realiyani ifodalaydi, ya’ni kishilar so‘z yordamida madaniy birliklarni va ularga o‘z emotsional-baho munosabatlarini ifodalaydi. Ikkinchidan, ontogenezda, bunda til madaniy hodisani, tajribani o‘zida mujassam etadi. Uchinchidan, filogenezda, bunda til madaniy voqelikni ramziy ko‘rinishda ifodalaydi, ya’ni til lingvomadaniy jamoaning ramzi sifatida ko‘riladi. Til va madaniyatning o‘zaro munosabati tadqiqiga til shaxsi tushunchasini jalb etilmasdan amalga oshmaydi. O‘zbek va jahon tilshunosligida struktural-semantik jihatdan tasnif qilish, ularning funksional-uslubiy xususiyatlarini o‘rganish, iboralarning shakllanish jarayonini tadqiq etish sohasida salmoqli ishlar amalga oshirilgan (Yo‘ldoshev, 2011) bo‘lsa-da, frazeologiya obyektlari xususida ilmiy munozalar davom etmoqda. Lingvomadaniy jamoa hayotidagi muhim universal konseptlarning milliy o‘ziga xosligi til tizimining leksik va frazeologik maydonidagi mos semalarni qiyosiy, kontrastiv yoki introspektiv yondashuvli lingvomadaniy tahlil vositasida ochib beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Wierzbicka A. Semantics, Culture, and Cognition. Oxford University Press. 1992.-p.441
2. Wierzbicka A. Understanding Cultures Through Their Key Words. Oxford: Oxford University Press.- 1997.-p.317

3. Теля В.Н. Русская фразеология: семантико-прагматический и лингвокультурологический аспекты. М.: ЯРК, 1996, 284с Теля В.Н. Фразеология в контексте культуры. М., Русский язык. 1999.
4. Маслова В.А. Лингвокультурология. Учебное пособие. М.: Академия, 2001.- 154с
5. Гумбольдт В. Избранные труды по языкознанию.-М.: Прогресс, 1984.-397с. Гумбольдт В. Язык и философия культуры. М.: Прогресс, 1985.- 450с Добровольский Д. О. Национально-культурная специфика во фразеологии (II) // ВЯ. No 6.1998.-С.48-57 Жуков В.П. Семантика фразеологических оборотов. – М.: Просвещение, 1978. – 160 с. Иванова С. Лингвокультурологический аспект исследование языковых единиц. Уфа.-2003
6. Маматов А.Э. Ҳозирги замон ўзбек адабий тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари. – Тошкент: 1991.-Б.218
7. Йўлдошев Б. Фразеологик услубият асослари. Ўқув қўлланмаси. Самарқанд: самду наشري. 1998.-200 б
8. Azizov O. A. Tilshunoslikka kirish. Toshkent. 1963.
9. Buronov J. B. Ingliz va uzbek tillari kiyosiy grammatikasi. Toshkent, 1973. 144-bet
10. Lingvokulturologiya, ma'ruza matnlari, darvishov ibrohim o'rmonovich. Namangan 2020
11. Musulmonova shokhriza, a comparative analysis of phraseological units in uzbek and english languages, vol. 45 no. 1 (2025): лучшие интеллектуальные исследования | часть-45 | том-1 <https://scientific-jl.com/luch/article/view/14274>
12. Elvina Rustemovna Sherefetdinova. (2024). In intercultural contexts, social norms, beliefs, and values play a significant role in shaping interpretations and interactions. Kokand University Research Base, 112–123. Retrieved from <https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/297>
13. Elvina Rustemovna Sherefetdinova. (2024). Globalization and the shifting sands of cultural identity. Kokand University Research Base, 124–127. Retrieved from <https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/298>
14. Nodira, R., Mubina, K., Gulyora, I., Robiyaxon, A., & Shahzodaxon, R. (2025, June). The connection between hemingway's life and his fiction. In conference of advance science & emerging technologies (Vol. 1, No. 2, pp. 82-86).
15. Nodira, R., & Muhabbatxon, Y. (2025, June). The influence of ts eliot on post-war literature. In conference of modern science & pedagogy (Vol. 1, No. 3, pp. 217-223).

16. Rajabaliyeva, N. (2024). Phraseological units with color components and their importance in english language. Qo‘qon universiteti xabarnomasi, 13, 331–334. <https://doi.org/10.54613/ku.v13i.1091>.